

OILA MUSTAHKAMLIGI JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSIDIR

Uzoqova Madina Chori qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ijtimoiy
psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada oilaviy munosabatlar mustahkamligi va ushbu munosabatlar davlat siyosati darajasida ekanligi, qanday omillar oilada farovonlikni va barqarorlikni ta‘minlashi, oilaviy ajrimlar, ajrimlarning sabablari, oqibatlar hamda uning farzand tarbiyasiga, ruhiyatiga ta‘siri, oilaviy turmushdagi inqirozlarni yengish, kichik va katta yoshdagi inqirozlar, har bir oilada totuvlik hukm surishi uchun qanday yo‘l tutish kerakligi kabi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: oila instituti, oila mustahkamligi, barqarorlik, davlat siyosati, sog‘lom muhit, konsepsiya, munosabatlar tizimi, inqirozlar, ajrimlar, jamiyat, shaxs, ijtimoiy hayot, farzand, ruhiy xotirjamlik.

Oila – avlodlar davomiyligi, qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analarni, qolaversa, xalqimiz ma‘naviy merosining avloddan avlodga o‘tishini ta‘minlovchi omildir. Oila har bir insonning baxti va saodati, orzu va havaslari, maqsad va muddaolarini birlashtiradigan, quvonchli yoki mushkul vaziyatlarda suyana oladigan kichik bir vatan hisoblanadi. Har bir inson oila muhitida kamolga yetar ekan, oilaning barqarorligi, mustahkamligi va farovonligi jamiyat taraqqiyotining eng asosiy shartlaridandir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda: “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma‘naviy - ma‘rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur”.

Ma‘lumki, oila jamiyatning dastlabki va asosiy bo‘g‘ini, qo‘rg‘onidir. Ana shu qo‘rg‘on mustahkam bo‘lsa, jamiyat mustahkam bo‘ladi, ana shu qo‘rg‘on ahlida ma‘naviy yetuklik ustuvor bo‘lib, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida kamol topgan bo‘lsalar, jamiyat ham, demakim davlat ham shu qadar qudratli, taraqqiy etgan, mustaqilligi barqaror bo‘ladi. Oila deb atalmish gulshan ahllari o‘rtasida vujudga keladigan tabiiy, iqtisodiy, huquqiy va ma‘naviy munosabatlar ko‘p ming yillik tarix va tajribaga ega. Oilaparvar xalqimizning ana shu an‘ana va qadriyatlari, tarix va tajribalari asosida jamiyatimizdagi har bir barpo etilayotgan yosh oilalarni shakllantirish va mustahkamlash bugun har qachongidanda muhim hisoblanadi. Zero,

oilaviy munosabatlar hamda oila barqarorligi masalalari jamiyatimizda davlat siyosati darajasidadir.

Xususan, Prezidentimizning 2018-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Mazkur qarorda demografik rivojlanishni rag‘batlantirish va oila farovonligi darajasini oshirish asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi oila institutini mustahkamlash konsepsiyasida davlat ijtimoiy siyosatining tarkibiy qismi hisoblangan oilalar barqarorligi, aholi bandligini va real daromadlarini izchil oshirib borish, fuqarolar farovonligini oshirish, oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, konsepsiyadan kelib chiqqan holda jamiyatda zamonaviy oila modelini hamda “Oila davlat va jamiyat himoyasidadir” konstitutsiyaviy prinsipini to‘liq ro‘yobga chiqarish, oila institutini mustahkamlash sohasidagi islohotlarni samarali amalga oshirish ham e‘tiborga olingan. Bunday islohotlar va siyosatning fuqarolar tomonidan anglanishi ularda oila-nikoh munosabatlariga nisbatan cheksiz mas‘uliyat hissini, o‘zi qurgan oilaga nisbatan g‘urur va uni qadrlash psixologiyasini shakllantiradi.

Oila — hurmat, hamjihatlik va mehr-muhabbatdan dars beruvchi ulug‘ maskandir. Oila farovonligi mamlakat taraqqiyotining o‘lchovini belgilab berishini unutmagan millat hamisha yuksak marralarni zabt etishiga shubha yo‘q. Oila – muqaddas qo‘rg‘on, oila – ma‘naviy kamolot maskani va boshqa bir qancha so‘z va iboralar bilan oilaning mavqeini belgilaymiz. Albatta, jamiyatda namunali oilalar talaygina. Namunali oila deganda, oilaviy munosabatlar ma‘naviy mezonlar asosida qurilgan, yaxshi va axloqli farzandlar tarbiyalagan, nurli, piru badavlat otaxon va onaxonalar ko‘z oldimizga keladi. Ularning borligi boshqalar uchun ibrat maktabidir. Ammo, afsus, bizni o‘ylantirgan masala bu – oila qo‘rg‘onining buzilishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan bir qancha tashqi va ichki omillardir. Tashqi omil sifatida g‘arbona yashash tarzining o‘zlashtirilishi bo‘lsa, ichki omil sifatida esa, yoshlarning oilaga ma‘naviy jihatdan yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lmaslik masalasidir.

Oilalarning buzulishi va ajralishi jamiyat uchun zararli va muammoli holatdir. Odatda ajralishlarning sabablari har xil, ba‘zilari juda ahamiyatsiz. Ajrashmoqchi bo‘lgan er-xotin uchun muhim bo‘lgan narsa boshqa juftlik uchun ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin. Shuningdek, o‘zbek oilalarning ajralishlariga uchinchi shaxslarning aralashuvi, qaynona-kelin munosabatlari, farzandsizlik, yosh oilalarning o‘z uy-joyiga, daromad manbaiga ega emasligi kabi omillar ham katta ta‘sirga ega. Oilalarning ajralishi ayniqsa bolalar uchun ayanchli kechadi. Ko‘pgina bolalar o‘z fikrlariga ko‘ra ota-onalarining ajrashishlarida o‘zlarini ayblashadi, aybdorlik qayg‘uga sabab bo‘ladi. Ajrashish bolalar ta‘limiga salbiy ta‘sir o‘tkazib, o‘quv jarayoni sustlashishiga yoki

ta'lim olish imkoniyatlari uchun moddiy ta'minot cheklanishiga olib keladi. Oila dinamikasi va moliyaviy ahvolining sezilarli darajada o'zgargani sababli, ajralgan oilalardan chiqqan bolalar boshqa bolalarga qaraganda jinoyatchilikka moyil bo'ladi. Ba'zan bolalar o'zlariga nisbatan ishonchsizlini his qiladi.

Ajrashish oilalarning moddiy turmush tarziga salbiy ta'sir o'tkazadi. Ikki shaxs o'rtasida taqsimlangan ro'zg'or bir kishi zimmasiga tushadi. Xalqaro miqyosda ma'lumotlarga ko'ra, ajrashgan har beshinchi ayol qashshoqlikka tushmoqda, har uchinchi ayol uy-joysiz qoladi. Aksariyat erkaklarning turmush darajasi 10-40 foizga pasayib ketadi. Bu holat o'z navbatida jamiyat taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi va kambag'allik o'sishi, ijtimoiy yordamga muhtojlar ko'payishiga sabab bo'ladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda ayrim G'arb mamlakatlarida bir yilda o'nta nikohdan yettitasi buzilar ekan. SHuning o'ziyiq ma'naviy hayot, axloq-odob masalasiga beparvolik va loqaydlik, erkinlikni o'zboshimchalik deb tushunish qanday og'ir va ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan BMT tomonidan har yili ajralishlarning global koeffitsiyenti berib boriladi. Mazkur ma'lumotlarga ko'ra, nikohdan ajrashish statistikasi bir qator ta'sirchan omillar tufayli keskin o'zgarib bormoqda. Dunyo bo'yicha ajrashishga juftliklarning o'zaro mos kelmasligi, xiyonat, giyohvandlik, alkogolga qaramlik, moddiy yetishmovchilik hamda jismoniy, ruhiy zo'ravonlik katta ta'sir o'tkazadi.

2011-yilda Wisconsin-Madison universiteti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotdar shuni ko'rsatdiki, ajrashgan ota-onalarning farzandlari aksariyat holatlarda matematika va ijtimoiy ko'nikmalar bo'yicha sinfdoshlaridan ancha orqada qoladi.

2009-yilda Mishcon de Reya yuridik firmasi 20 yil davomida ajrashgan oilalarda yashagan 2 ming kishi o'rtasida tadqiqot o'tkazdi. Natijalarga ko'ra ularning 42 foizi hayoti davomida turli tajovuzlarga guvoh bo'lganini, 49 foizi tushkunlikka tushgan ota-onalarini yupatishga, 24 foizi yolg'on gapirishga majbur bo'lganligini aytgan. Buning oqibatida har ularning har 10 tasidan bittasi jinoyatchiga aylangan va 8 foizi o'z joniga qasd qilgan.

Oila shaxsning ruhiy xotirjamligi, jismoniy halovati, stresslarni bartaraf etish maskani sifatida, qolaversa, shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishi, yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim qadriyat. Inson oilam, bolamchaqam deb yashab, ishlar ekan, o'zini turli jinoyatlardan tiyishi, qobiliyati va imkoniyatini ko'paytirishga intilishi, mehr-muruvvatliroq bo'lishi tayin. Bu esa, uning jamiyatda o'z o'rnini topishiga, jamiyatning ham ezgu niyatli insonlar bilan boyishiga olib keladi. Ajrimlarning ko'payishi esa shaxslarning jamiyatdan begonalashuviga, daxldorlik tuyg'usining yo'qolishiga olib keladi. Jamiyatimizda oilalarni saqlab qolish,

ajrimlar sonini qisqartirish har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Avvalo, yosh oilalarni ish, uy-joy, real daromad bilan ta'minlash darajasini oshirish lozim. Bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda diniy bilimni kuchaytirish, oila muqaddasligi g'oyasini singdirish shart. Yarashtiruv komissiyalari faoliyatini takomillashtirish, nizoli oilalar bilan doimiy ravishda aloqada bo'lishning yangi mexanizmlarini joriy etish, fuqarolarga har bir oila davlat muhofazasida ekanligini amalda his qildirish kerak. Zero, oilani asrab-avaylash, uning mustahkamligini ta'minlash, ajrashish arafasidagi oilalarni yarashtirish eng ezgu amallardan hisoblanadi.

Ma'lumki, jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo'lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Shu jihatdan, oila qo'rg'onining mustahkamligi va unda ma'naviy jihatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulg'ayadi.

Xulosa qilib aytganda, oila ijtimoiy institut sifatida o'zining barcha vazifalarini bajargan taqdirdagina, mafkuraviy tarbiyaning kafolatli o'chog'iga aylanadi. Zero, har bir oilaning muqaddas vazifasi – qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Ya'ni, ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan sog'lom, barkamol inson faqat sog'lom muhitli oilada shakllanishi mumkin. Oiladagi sog'lom muhit va barqarorlik esa jamiyatning ma'naviy takomillashuvi asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil.
2. OILA PSIXOLOGIYASI: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // Muallif: V.M.Karimova. – Toshkent 2007.
3. OILA PSIXOLOGIYASI: Darslik. Muallif: G'. B. Shoumarov. – Toshkent 2008
4. www.link.springer.com